XALQ DEPUTATLARI YANGIYER SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

121000, Yangiyer shahar Yangi asr ko'chasi, telefon: 350-10-76

2023 - yil 29 - dekabr VI-79-188-9-132-K/23 Yangier shahar hokimligi

2024-yilgi Yangiyer shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash va mahalliy byudjetning daromadlari va xarajatlarining prognoz ko'rsatgichlarini belgilash to'g'risida

Byudjet Kodeksining 99-moddasiga, 25.12.2023 yildagi O'RQ-886-sonli "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'risida"gi Qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25-dekabrdagi 01/30-2-10351-sonli xatini inobatga olib hamda O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2023-yil 7-noyabrdagi (02-1156) Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar mahalliy byudjetining 2024- yil uchun shakllantirilgan loyixasi buyicha xulosasini muxokama qilgan holda hamda Sirdaryo viloyati Xalq deputatlari kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-60-194-9-0-K/23-sonli qaror ijrosi yuzasidan 2024-yilgi shahar maxalliy byudjetlari daromadlari va xarajatlarining prognoz kursatgichlarini belgilash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi "Maxalliy davlat xokimiyati tug'risida"gi Qonunining 6-, 24-, 25-moddalariga, Xalq deputatlari Yangiyer shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Yangiyer shahrining (keyingi o'rinlarda – shahar) 2024-yil uchun asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha prognozi 1-ilovaga muvofiq;

- shahar mahalliy byudjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

- 2024-yil uchun shahar mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlari prognozlari 3-ilovaga muvofiq;

- Shahar mahalliy byudjeti mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 4-ilovaga muvofiq;

- Shahar mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori 5-ilovaga muvofiq;

- mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari 6-ilovaga muvofiq (soliq solish maqsadlari uchun);

- tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig'imlarning cheklangan stavkalari 7-ilovaga muvofiq;

- 2024-yil uchun avtotransport yig‘imlarining stavkalari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan (keyingi o‘rinlarda – Qonun) O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirishda qo‘llaniladigan bojxona bojlari stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

3. 2024-yil uchun shahar byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 499796,0 ming so‘m miqdorida belgilansin. Shahar byudjetining 2024-yil uchun zahira jamg‘armasi tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan shahar byudjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

4. 2024-yilda quyidagi soliq turlari shahar mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i

- jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

- noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

- korxonalar aylanmasidan soliq;

5. Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsuloti, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishlicha 2023-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, shahar aholisi sonining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib beriladi.

6. 2024-yil uchun shahar mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli Farmoni 1-bandida belgilangan vakolatlar doirasida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining mutloq miqdorida bazaviy soliq stavkasi 10-ilovaga, jismoniy shaxslardan (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) undiriladigan mutloq miqdorida 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi 11-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Shahar mahalliy byudjeti aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 12-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat shahar mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

10. 2024-yil jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun 9 147 032,0 ming so‘m mablag‘ rejalashtirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

11. Shahar byudjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun shahar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilsin;

12. Qonunga quyidagilar shahar byudjetidan moliyalashtiriladi:

- Soliq qo‘mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari.

13. Yangiyer shahri hokimining birinchi o‘rinbosari (N.Kurbonov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi mudiri (Sh.Xudoyberdiyev), Davlat soliq inspeksiyasi (A.Bekmatov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

- tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

- mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

- byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

- byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

- tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

- byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

14. Shahar Davlat soliq inspeksiyasi (A.Bekmatov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

- soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

- yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

- aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur

hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

- xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

15. Mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’yektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

16. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari N.Kurbonov zimmasiga yuklatilsin.

17. Ushbu qaror "Yangiyer xayoti" gazetasida rasmiy e'lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-sayitiga joylashtirilsin va mazkur qaror 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

18. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi R.Botirov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **O.Nosirov**

Xalq deputatlari Yangier shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-79-188-9-132-K/23-son qaroriga
1-ilova

Yangiyer shahrining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	2024 yil o‘sish foizda
1	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	104,4
2	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	100,0
3	Xizmat ko‘rsatishning o‘sish sur’ati, foizda	117,1
4	Qurilish ishlari	107,5

Xalq deputatlari Yangier shahar Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-79-188-9-132-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024 yil uchun Yangiyer shahar mahalliy byudjeti daromadlarining reja ko‘rsatkichlari

№	Daromad turi	2024 yilda
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	9275 813
2	Aylanmadan olinadigan soliq	5756 384
3	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat‘iy belgilangan daromad solig‘i	1407 799
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3057 695
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3570 010
7	Ijara to‘lovlari	76 316
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	374 355
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	445 525
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	169 796
	JAMI	**24133 693**
	Jami transfertlar*	**35492 765**
	shundan aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajaratiladigan mablag‘lar	**8122 110**
	Alkogolka aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	**3520 670**
	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	**1418 130**
	Tamaki mahsulotlari	**3183 310**
JAMI DAROMADLAR		**59626 458**

* tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlarni inobatga olgan holda.

Xalq deputatlari Yangier shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-79-188-9-132-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024 yil uchun shahar maxalliy byudjetining daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad *	Xarajat**
JAMI	**59626 458**	**59626 458**
Yangiyer shahri	59626 458	59626 458

*tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlarni inobatga olmagan holda.

Xalq deputatlari Yangier shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-79-188-9-132-K/23-son qaroriga
4-ilova

Yangiyer shahar mahalliy byudjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga 2024 yil ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**59626 458**
	Shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**59626 458**
	Zaxira jamg‘armasi	**499 796**
	Fuqarolar tashabbus jamxarmasi xarajatlari	**9147 032**
	Maxalla byudjeti	**469 795**
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**12768 542**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12768 542
	Maktabgacha ta’lim muassasalari	7900 454
	Umumiy o‘rta ta’lim maktablari	1078 777
	Barkamol avlod markazi	787 660
	Xalq ta’lim bo‘limi	3001 651
2	**Sog‘liqni saqlash (Shahar SEO va jamoat salomatligi bo‘limi)**	**2238 115**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlari	2238 115
3	**Madaniyat bo‘limi**	**3434 673**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3434 673
	Madaniyat saroylari	784 471
	Madaniyat bo‘limi apparat	116 676
	Bolalar musiqa va san’at maktabi	2533 526
4	**Yoshlar siyosati va sport bo‘limi**	**5496 427**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5496 427
	Bolalar O‘smirlar sport maktabi	2946 672
	Yoshlar ishlar agentligi	2549 755
5	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi**	**2774 571**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2774 571
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limini saqlash xarajatlari	1935 109
	Oila va xotin qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limini saqlash xarajatlari	839 462
6	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limlari**	**1181 275**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1181 275
	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	572 132
	Xayvonlar kasalliklari tashxisi va ozik-ovkat maxsulotlari xavfsizligi davlat markazlari	609 143
7	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**1854 140**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1854 140
	Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga transfertlar	
8	**Davlat soliq inspeksiyasi**	**3224 771**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	*3224 771*
9	**Shahar hokimligi**	**14831 774**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	*14831 774*
	Shahar hokimligi saqlash xarajatlari	2285 448
	Halq qabulxonasi	145 243
	Xokim yordamchilarining saqlash xarajatlari Maxallabay	1261 122
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	246 951
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	96 794
	Axborot kutubxona markazi	660 503
	MAXALLA BYUDJETI	469 795
	Zahira jamg‘armasi	499 796
	Fuqarolar tashabbus jamg‘armasi xarajatlari (Open byudjet)	9147 032
	PQ-299 Ozodlikdan maxrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga dastlabki ijtimoiy yordam	19 090
	Ijtimoiy nafaqalar	0
10	**Shahar hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi saqlash xarajatlari**	**11822 170**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11822 170
	Nozoratsiz xayvonlarni tutish bilan bog‘liq xarajatlar	137 950,0
	Shahar ichki yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4000 000,0
	Shaxar ko‘chalarnit tashqi yoritish tarmoqlarini saqlash xarajatlari	820 731,0
	Obodonlashtirish boshqarmasi saqlash xarajatlari	5121 919,0
	Shahardagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish xarajaatlari	174 120,0
	PQ -4351 qaror ijrosi bo‘yicha xarajatlar	4 600,0
	PQ -46 qaror ijrosi bo‘yicha xarajatlar	1215 550
	PQ -46 qaror ijrosi bo‘yicha xarajatlar Sug‘orish tizimlari	347 300

Xalq deputatlari Yangier shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-79-188-9-132-K/23-son qaroriga
5-ilova

2024 yil uchun shahar mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	**Xudud nomi**	**Summa**	*shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajaratiladigan mablag‘lar**
1	Yangiyer shahar	35492 765,0	8122 110,0

***** tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar.

Xalq deputatlari Yangier shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-79-188-9-132-K/23-son qaroriga
6-ilova

2024 yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

№	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkich	Oylik ijara stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda
1.	**Uy-joylar:**		
	turar joy	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun	4 500
	noturar joy		8 300
2.	**Avtomobil transporti:**		
	yengil avtomobil (yo‘lovchilar, bagaj tashishga mo‘ljallangan hamda haydovchi o‘rnini hisoblamaganda, o‘rindiqlari soni 8 tadan ko‘p bo‘lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	695 000
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		1375 000

Izoh: Mazkur stavkalar jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo‘llaniladi.

Xalq deputatlari Yangier shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-79-188-9-132-K/23-son qaroriga
7-ilova

2024 yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig‘imlarning cheklangan stavkalari

Yig‘imlarning turlari	**Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)**	Alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig‘im	600 000
Umumiy ovqatlanish korxonalari uchun alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig‘im	300 000		

Xalq deputatlari Yangier shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-79-188-9-132-K/23-son qaroriga
8-ilova

2024 yil uchun avtotransport yig‘imlarinnng stavkalari

T/r	Yig‘imlar va to‘lovlar turlari	Yig‘imlar stavkalari
I	**Chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘imlar**	**AQSH dollarida**
1	O‘zbekiston Respublikasi hududiga chet el davlatlaridan avtotransport vositalari kirganligi va tranziti uchun yig‘im, bitta avtotashuvchi kirganligi uchun stavkalari (2 — 5 bandlarda ko‘rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2	Tojikiston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘imlar:	
	10 tonnagacha	100
	10 tonnadan 20 tonnagacha	150
	20 tonnadan yuqori	200
3	Qozog‘iston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘im	300
4	Qirg‘iziston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘im	300
5	Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘imlar:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan yuqori	150
II	**Avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im**	
1	Yangi hamda foydalanishda bo‘lgan avtotransport vositalari bo‘yicha	xarid qilish narxining 1 foizi

Izoh:

1. O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab xorijiy davlatlarning og‘ir yuk tashuvchi va yirik gabaritli transport vositalari o‘tganligi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo‘yicha yig‘im to‘lanishi bilan bir qatorda qo‘shimcha ravishda qonunchilikda belgilangan miqdorlarda to‘lov undiriladi.

2. O‘zbekiston Respublikasiga uchinchi mamlakatlardan yuklar olib o‘tishda va O‘zbekiston Respublikasi hududidan yuklarni olib chiqishda Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalaridan qo‘shimcha ravishda 175 AQSH dollari miqdorida yig‘im undiriladi.

3. Gumanitar yuklarni olib o‘tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig‘imlar stavkasiga nisbatan 0,5 kamaytiruvchi koeffisiyent qo‘llaniladi.

4. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Xalq deputatlari Yangier shahar Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-79-188-9-132-K/23-son qaroriga
9-ilova

2024 yil uchun shahar byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

(foiz hisobida)

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qar’ridan foydalanganlik uchun soliq, bunda syement xom ashyosi va syement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno	Ijara to‘lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bunda elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Aylanmadan olinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i
1	Yangiyer shahri	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20

Xalq deputatlari Yangier shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-79-188-9-132-K/23-son qaroriga
10-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 1 gektar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar

			ming so‘mda
T/r	**Hudud nomi**	**Koeffisiyent (0,5 dan 2 gacha)**	**Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (ming.so‘m)**
1	T.Malik	1,0	32 400,0
2	Z.Bobur	1,0	32 400,0
3	Fazilat	1,0	32 400,0
4	Shukrona	1,0	32 400,0
5	A.Jomiy	1,0	32 400,0
6	Binokor	1,0	32 400,0
7	Davlatobod	1,0	32 400,0
8	Yuksalish	1,0	32 400,0
9	Shodiyona	1,0	32 400,0
10	Marifat	1,0	32 400,0
11	Navruzabod	1,0	32 400,0

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffisentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Yangier shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-79-188-9-132-K/23-son qaroriga
11-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar

			so‘mda
T/r	**Hudud nomi**	**Koeffisiyent (0,5 dan 2 gacha)**	**Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun**
1	T.Malik	1,00	253,0
2	Z.Bobur	1,00	253,0
3	Fazilat	1,00	253,0
4	Shukrona	1,00	253,0
5	A.Jomiy	1,00	253,0
6	Binokor	1,00	253,0
7	Davlatobod	1,00	253,0
8	Yuksalish	1,00	253,0
9	Shodiyona	1,00	253,0
10	Marifat	1,00	253,0
11	Navruzabod	1,00	253,0

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffisentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Yangier shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-79-188-9-132-K/23-son qaroriga
12-ilova

Shahar mahalliy byudjeti aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

	ming so‘mda
Shahar nomi	**Miqdor**
Yangiyer shahri	**459 522**